

## AUROBINDO GHOSHNING G'ARB MATERIALIZMI VA SHARQ SPIRITUALIZMINI SINTEZ QILISHGA URINISH SIFATIDAGI INTEGRAL YONDASHUVI

**Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Sharq falsafasi va madaniyati” mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

[a.shoqambarov@mail.ru](mailto:a.shoqambarov@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

*Maqola hind diniy milliy-tarixiy ongini modernizatsiya qilish jarayonini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda Hindistonda tarixga yangi diniy qarash shakllanishining ijtimoiy va mafkuraviy shart-sharoitlari tahlil qilingan. Unda neovedanizmning eng ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri – Shri A.Ghoshning tarixiy – falsafiy g'oyalari atroflicha tavsiflangan.*

**Kalit so'zlar:** neovedantism, Nirguna Brahman, Saguna Brahman, Ekam, Atman, Sat-Chit-Ananda, ziddiyat, idealizm, materialism.

### ABSTRACT

*The article is devoted to the analysis of the process of modernization of the Indian religious national-historical consciousness. It analyzes the social and ideological prerequisites for the formation of a new religious view of history in India, provides a detailed description of the religious and historical ideas of one of the most prominent representatives of neo-Vedanism - Sri A. Ghosh.*

**Keywords:** neo-Vedantism, Nirguna Brahman, Saguna Brahman, Ekam, Atman, Sat-Chit-Ananda, confrontations, idealism, materialism

### АННОТАЦИЯ

*Статья посвящена анализу процесса модернизации индийского религиозного национально-исторического сознания. В ней проводится анализ социальных и идейных предпосылок становления нового религиозного взгляда на историю в Индии. Даётся развернутая характеристика религиозно-исторических – философский представлений одного из виднейших представителей неоведанитизма - Шри А. Гхосха.*

**Ключевые слова:** неоведантизм, Ниргуна Брахман, Сагуна Брахман, Экам, Атман, Сат-Чит-Ананда, противоборства, идеализм, материализм

### KIRISH

Hindistonda yangi noan'anaviy madaniyat paydo bo'lishi davri har xil oqimlarning murakkab tarzdagi o'zaro uyg'unlashuvi (birlashuvi) bilan tavsiflanadi,

ularning har birida, shuningdek ularning birligida jam bo'lgan holatida ham o'rganish uchun tadqiqot predmeti mavjud bo'lgan, albatta. Bunday vaziyatda ko'plab parametrlarga ko'ra hind diniy tafakkurining modernizatsiya davridagi markaziy yo'nalishi bo'lgan neovedantikaga e'tibor qaratishimiz o'rinnlidir. 20-asrning boshlaridagi neo-vedantizm Sharq va G'arbning madaniy merosini tahlil qilish uchun G'arb va Sharq falsafasi va vedantizm sxemalari o'rtasidagi munosabatlarni qayta ko'rib chiqishga urinish sifatida tavsiflanadi. Ushbu tendensiyada Aurobindo Ghoshning ishi muhim rol o'ynadi, u neo-vedantizmning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan, Vedantani o'zidan oldingi neo-vedantiklarga qaraganda tubdan modernizatsiya qilgan.

Vedantaning asosidagi an'anaviy falsafiy maktab nomi bilan atalgan bu harakat, aksariyat tadqiqotchilar fikriga ko'ra, hind jamiyatining yangi milliy mafkurasini shakllantirishda katta rol o'ynadi.[1. 4-b] Buning eng muhim jihat shundaki, uning doirasida Hindistonning o'zi va umuman insoniyat sivilizatsiyasi tarixiga yangicha hind diniy yondashuvining shakllanishi boshlandi.

Ushbu tendensyaning paydo bo'lishi uchun bir qator ijtimoiy faktorlar mavjudligini aytish mumkin. Biroq, bizni ko'proq qiziqtirgan yondashuv – hind tafakkuri yo'nalishi ta'sirida paydo bo'lib shakllangan umumiy ideologik kontekst muammosiga to'xtalamiz.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

A. Ghosh hind islohotchilar orasida eng taniqli shaxslardan biri hisoblanadi. "Uning o'z falsafiy ta'limoti doirasida amalga oshirgan qadimgi vedantistik g'oyalarni qayta ko'rib chiqishi yangi va zamonaviy davrda neo-vedantizm vakillari tomonidan amalga oshirilgan ushbu turdag'i barcha urinshlar orasida eng radikal xarakterga ega edi.[2. 580-b]

Boshqa vedantistlardan farqli o'laroq, Ghosh bu sohada haqiqiy yutuqni qo'lga kiritdi. U taklif qilayotgan sxemada jamiyatning ratsionalizatsiyasini oshirish jarayonini o'ziga xos "qonuniylashtirish" mavjud. Shunday qilib, G'arb ta'sirining Hindistonga kirib borishi ijobiy ahamiyat kasb etadi, garchi Aurobindo shu bilan to'xtamaydi. U hindlarning o'z milliy xarakterini saqlab qolish, o'z madaniy an'analarini hurmat qilish huquqini himoya qilish bilan birga, zamonaviy dunyoda Hindistonning maxsus "missiyasi" g'oyasini rivojlantiradi. Xuddi ko'plab hindistonlik islohotchilar asarlaridagi kabi, Ghoshning yangi Hindiston haqidagi obraqi G'arb bilan faol munozara fonida chizilgan.

Shri Aurobindo hind sivilizatsiyasining ma'lum bir markaziy "motiv"i borligiga ishongan va uning jahon madaniyati hamjamiyatidagi o'rmini aniqlagan: "Hindiston madaniyatining asl qadriyati aynan shundaki, Hindiston o'z hayotini yuksak g'oyalar, ma'naviy va abadiylikka intilish asosida quradi. Inson xarakteridagi barcha nomukammalliklar bilan, Hindistonning ushbu yuksak idealga sodiq qolishi o'z xalqini dunyoning boshqa xalqlariga nisbatan o'zgacha holatga keltiradi "[4. 4-b]

Ziddiyat, Aurobindoning fikriga ko'ra, hech qachon ideal holat emas. Ideal, uning fikriga ko'ra, har bir madaniyat o'z yaxlitligini saqlab qolganda va o'zini yagona dunyo jarayonining bir qismi sifatida anglashganda, turli madaniyatlarning tinchlik va o'zaro hurmat muhitida erkin yashashidir. "Biroq, qarama-qarshilik printsipi hukmronlik qilar ekan, quyi qonunning amal qilishiga bo'ysunish kerak: jang paytida qurol tashlab qo'yish o'limga olib keladi. O'zining jonli o'ziga xosligidan voz kechgan madaniyat, faol tarzda o'zini-o'zi himoya qilishni e'tiborsiz qoldiradigan sivilizatsiya, albatta, boshqalar tomonidan yutib yuboriladi va shu bilan birga, ruhiyatini yo'qotgan xalq ham halok bo'ladi".

Tarixiy qarama-qarshilik printsipi Osiyo va Yevropa o'rtasidagi ko'p asrlik to'qnashuvda o'zini namoyon qildi. Ushbu ziddiyat va ikki madaniyatning ta'sir o'tkazuvchi ta'siri moddiy, madaniy va ma'naviy jihatlarga ega. Yevropa o'z moddiy va ma'naviy qadriyatlarini Osiyoga tatbiq etishga bir necha bor urinib ko'rdi, Osiyo, o'z navbatida, Yevropani ham zabit etishga, singdirishga va unga hukmronlik qilishga intildi. Ikkita buyuk kuchlar, Sharq va G'arb, har doim bir-biriga qarshi turishgan va turli muvaffaqiyatlar bilan bir-biriga qarshi hujum uyuştirishgan. Osiyo madaniyati azaldan ma'naviyatga moyil bo'lib kelgan. Hindiston bu jihatdan Osiyo madaniyati va turmush tarzining asosiy tamal toshlaridan biridir.[4. 5-b]

Modernizatsiya davrida hind jamiyatida vujudga kelgan vaziyatni tavsiflab, Ghosh asosiy e'tiborini Hindiston va G'arb o'rtasidagi qarama-qarshilik muammosiga qaratadi. G'arb bilan yashirin va tez-tez ochiq diskussiya neo-vedantizmning ko'plab vakillari ishining o'ziga xos xususiyati ekanligi, ehtimol, tasodifiy emas. Shu munosabat bilan V.S. Kostyuchenko yozadi: "Yashirin yoki aniq, murosaga keltiruvchi yoki keskin tanqidiy, konkret yoki "global" – u yoki bu tarzda Yevropaning ijtimoiy va falsafiy fikrlari bilan muloqot neo-vedantik evolyutsiyasida doimiy ravishda mavjud ..." Vedanta birinchi o'n yilliklarda yigirmanchi asrning, xususan, uning ma'naviy xazinasini modernizatsiyalash bir vaqtning o'zida amalga oshirildi. Oxir oqibat, bu ... hind va evropa madaniyatlarning o'zaro bog'liqligi muammosini neo-vedantizmda markaziy madaniyatlardan biri sifatida amalga oshirishga olib keladi".[4. 223-b]

Mavjud vaziyat klassik muqobil vaziyatdir. Uning samarali yechimi Aurobindo Hindiston o'zining madaniy shakllarini o'zgartirish orqali o'zini himoya qilishini ko'radi. Qarama-qarshi madaniyatlar bir-biriga hujum qilishda davom etar ekan, biz ziddiyatli vaziyat bilan kelishishimiz kerak. Ammo mohiyatan bu ilg'or G'arb tafakkurida vujudga kelgan barcha eng yaxshi narsalarni qo'llab-quvvatlaganligi sababli, bu yuqori darajadagi birlashishning boshlang'ich bosqichiga va birdamlikka tayyorlanishiga olib keladi.[5. 141-b]

An'anaga muvofiq, Aurobindo insonni tushunish orqali dunyonи tushunish kalitini topishga harakat qiladi. Aurobindo birlamchi voqelikning tabiatи haqidagi savolni o'rtaga qo'yadi. Shu bilan birga, Ghosh bu masalaga nisbatan yaxlit yondashuvni amalga oshirishga intiladi, inson tabiatining "biryoqlama" tushunchalarini tanqid qiladi. Inson mohiyatini "bir yoqlama" tushunish dunyonи anglashda "biryoqlamalik"ga olib keladi va aksincha. Aurobindo nuqtai nazaricha, bunday "biryoqlamalik" o'tgan butun boshli falsafa davomida qiyab keldi.

Eng umumiy ko'rinishda Shri Aurobindoning falsafiy tizimi quyidagicha. Upanishadlar va Bhagavad Gita ta'limotiga muvofiq, u asl Brahman(Absolyut)ning uchta bir-biri bilan chambarchas bog'langan va teng darajadagi shakllari mavjudligini tan oladi. Ular – namoyon bo'lmaydigan "noaniq" ("sifatlanmaydigan") Nirguna Brahman, va shuningdek, namoyon bo'ladigan Brahmanning ikkita shakli: ma'lum ("sifatlar bilan") Saguna Brahman va ruh sifatidagi Brahman – mutlaq ong, ya'ni Atman. Brahmanning o'zi esa yakka holda mavjud - bu noma'um Brahman; u substansiyadir. Substansiya sifatidagi Brahman yagonadir (Ekam), uning tashqarisida mavjudlik yo'q. U moddiy emas va ruhiy ham emas, unga nisbatan makon, vaqt, harakat, miqdor, sifat, sabab kategoriyalari qo'llanilmaydi... u bularning barchasidan "yuqorida", uni ta'riflab bo'lmaydi, u haqida faqat uning bor ekanligini aytish, ya'ni uning mavjud ekanligini qabul qilish mumkin. Uning mohiyatini ifodalab yoki aniqlab bo'lmaydi, shunga qaramay, an'anaviy hind formulasi Sat-Chit-Ananda unga tegishli. Borliq, Ong, Rohat-farog'at – bu fenomenal dunyo bilan o'zaro bog'langan yagona uchta xususiyatdir.

Brahmanning haqiqiqati, uning mohiyati o'z borlig'ini ochib beradi, ikki asosiy shaklda namoyon bo'ladi: materiya ("tabiat") va ong ("sof ruh"). Brahman-materiya – bu "ma'lum" Brahman (Saguna Brahman), dunyoning moddiy sababi bo'lib, "hamma narsani yaratadi". Brahman-ruh – bu Atman, mutlaq ong. Namoyon bo'lgan Brahmanning ikkala shakli ham bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birisiz mavjud emas; materiya va ong bir-biriga shunchalik kirib boradi va o'zaro ta'sir qiladiki, butun fenomenal olam "ichkaridan ong bilan yoritiladi", ya'ni ong har


bir narsaga va har bir tabiat hodisasiga u yoki bu darajada xos bo'lgan holda namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, biz materiyaning onggi haqida so'z yuritmayapmiz, chunki Shri Aurobindoning so'zlariga ko'ra, materiya o'zining har qanday ko'rinishida, shu jumladan inson miyasi shaklida ham o'ylamaydi va o'ylay olmaydi. Yuqoridagi fikrlar u yoki bu predmetda mavjud bo'lgan ob'ektiv ong miqdori to'g'risida ketyapti..

Shunday qilib, materiya va ong Brahmanning ikkita atributi darajasida ham, har qanday elementar ob'ektda ham o'zaro bog'liqdir. Shri Aurobindo u yoki bu narsani tashkil etuvchi materiya va ong o'rtasidagi munosabatni shakl va mazmun o'rtasidagi munosabat deb hisoblaydi: "Ruh biz modda sifatida idrok qilayotgan narsaning joni va haqiqatidir. Materiya biz ruh sifatida idrok qilayotgan narsaning shakli va tanasidir." [7. 228-b]

Absolyutning namoyon bo'lgan va namoyon bo'limgan holati o'rtasidagi oraliq bo'g'in bu supramental ong (oliy ong) bo'lib, unda ibridoiy Brahmanning cheksiz birligi "ruhiy xilma-xillik" ga, ya'ni involyutsiya jarayonida ruhning "dag'allashish" bosqichi deb hisoblash mumkin bo'lgan o'ziga xos spektrga ajratiladi

O'z manbasidan ajralish(involyutsiya)ning xilma-xilligi natijasida zamon va makonda rivojlanayotgan empirik dunyo vujudga keladi, rivojlanishdan maqsad o'z Manbai bilan qayta birlashishdir.

Shri Aurobindo bizning mavjudligimiz ilohiy mavjudlikning teskari tartibda refraksiyasi, ya'ni Brahmanga qaytish (ko'tarilish) deb hisoblaydi. Bu yerda ikkala yo'nalishdagi refraksiya chizmasi keltirilgan:



## XULOSA

Shunday qilib, moddiyunchilar insonni sof bilogik mavjudot, vitalistlar esa butun borliqning ko'rinishlaridan biri sifatida, idealistlar (ayniqsa, Yevropa subyektiv idealizmi) murakkab g'oyalar sifatida, spiritualistlar – moddiyati mavjud bo'limgan bo'limgan ruh sifatida ko'rishadi. Yuqorida sanab o'tgan tizimlarning har biri

dunyoning birlamchi asosi sifatida materiya, hayot, g'oya yoki ruhni tanladi. Aurobindo Ghoshning fikriga ko'ra, ularning barchasi ushbu to'rtta asosiy tamoyildan birisiz haqiqiy borliqning mavjudligini inkor etdilar.

Ghoshning ikki qutb pozitsiyasi bilan bahsi – “asket” spiritizm falsafasi va materializm - Yevropa va hind falsafasining dialogidir. Aurobindo bu ikkala pozitsiyani birinchi navbatda aksiologiya nuqtai nazaridan tanqid qiladi: ya'ni, Yerdagi mavjudlikning ma'nosi va ahamiyatini tan olishda bularning ikkisini inkor etishni tanqid qiladi. Agar “asketik” spiritizm uchun bu mavjudlik illyuziya bo'lsa (bu yerdan oliv mavjudotga ketish), materializm uchun u vaqtinchalik va o'tkinchidir, shuning uchun ham “asl”, abadiy ahamiyatga ega emas. Shunday ekan, bu ikki falsafani sintez qilishga urinish ham G'arb va Sharq merosini sintez qilishga urinishdir. Agar Aurobindoning asosiy vazifasi, maqsadi – hindlarga xos bo'lsa [3. 22-b], u foydalanadigan vositalar yevropachadir. Aurobindo tomonidan erishilgan ba'zi xulosalar munozaralarga sabab bo'lishi mumkin, uning butun falsafa rivojiga qo'shgan hissasining ulkan ahamiyati shubhasizdir.O'zining falsafiy tadqiqotlarini yakunlab, Shri Aurobindo shunday yozgan: “Bizning sa'y-harakatlarimiz haqiqat nima ekanligini va moddiy olamdagи ongli mavjudot sifatida mavjudligimiz qanday ahamiyatga ega ekanligini, bularning barchasi (ya'ni “ongli borlig'imiz”) bizni qaysi yo'nalishda va nimaga olib borishini, qaysi insoniy yoki ilohiy kelajakka olib borishini aniqlashga qaratilgan edi.”[7. 120-b]

## REFERENCES

1. Бродов В.В. Индийская философия нового времени. М., 1967
2. Костюченко В. С. Ауробиндо Гхош // Открытие Индии: философские и эстетические воззрения в Индии XX в /Пер.с англ.,бенг, урду. М., 1987
3. Ванина Е.Ю. Идеи и общество в Индии XVI-XVIII вв М., 1993.
4. Шри Ауробиндо. Собрание сочинений. Т. 8. Основы индийской культуры / Пер. с англ. СПб., 1998.
5. Костюченко В.С. Классическая веданта и неоведантизм. М., 1983.
6. Рашковский Е.Б. Научное знание, институты науки и интеллигенция в странах Востока: XIX-XX вв. М., 1990.
7. “Жизнь божественная” Перевод И. Савенкова
8. Хазанов О.В. Индийское общество и индийский религиозный историзм до эпохи модернизации // Методологические и историографические вопросы исторической науки. Вып. 27. Томск, 2003.